



XULQI VA TARBIYASIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR BILAN ISHLASHNING PSIXOLOGIK USULLARI

Usmonova Shoxista Kurganova

Toshkent shahri Olmazor tumani 16- maktab amaliyotchi psixolog

Annotatsiya : Insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal qiluvchi ahmiyatga ega. Inson tabiatini o'zgartiradigan, uning shaxsini tarkib topishiga ta'sir qiladigan kuch – ijtimoiy omillar yoki boshqacharoq qilib aytganda, jamiyat ishlab chiqarish kuchlari, hamda ishlab chiqarish munosabatlarining o'sishi va o'zgarishidir.

Kalit so'zlar: tarbiya, shakilanish, shaxs, xususiyat, aloqa, krizis

KIRISH

Ma'lumki, tarbiya uzlucksiz jarayon bo'lib, u inson dunyoga kelishidan to umrining oxirigacha davom etadi. Bu jarayon davomida atrof-muhitdagi voqe – hodisalar shaxsga salbiy yoki ijobiy ta'sir etishi mumkin va bu uning shaxsiy fazilatlarining shakllanish darajasini belgilab beradi. Bu esa ta'lim sohasi oldidagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu muammoning yuzaga kelishi sabablarini chuqur tahlil qilar ekanmiz, eng avvalo, tug'ilgan bolaning uni dunyoga keltirgan shaxslarning kimligi, ikkinchidan u qanday ijtimoiy muhitda tug'ilib voyaga yetib, ulg'ayotganligiga e'tibor qaratish lozim. Ko'pchilikning fikriga ko'ra, oxirgi paytlarda “tarbiyasi og'ir” bolalar bilan bog'liq muammolarning tez-tez uchrab turishi va ular soning keskin oshganligi tasdiqlanmoqda. Shuningdek, bu muammoni bir qancha tashqi sabablarga bog'lash mumkin, ya'ni hozirgi vaqtida axborot oqimining yuqoriligi (uzlucksiz televizor ko'rish, kompyuterda xar hil o'yinlar o'ynash, internet tizimidagi norasmiy saytlar orqali har xil nomaqbul axborotlarni o'zlashtirish) yoki kattalarning e'tibori, oiladagi iqtisod va hokazolar. Amerikalik amaliyotchi pedagoglar tomonidan pedagogik xizmat doirasida bola tarbiyasidagi salbiy o'zgarishlarning oldini olishda eng avvalo bolaga ta'sir ko'rsatish lozimligini ta'kidlashgan. Buning uchun bolaning o'zini o'zgartirishga



tayyorlash, ya'ni: tashqi muhit ta'siridan sarosimaga tushmaslik; turli xil qiyinchiliklarni yengib o'tishga o'rgatish lozim.

Olimlarning fikricha bolada mavjud noto'g'ri salbiy o'zgarishlarni ruhiy rivojlanishning me'yor darajasiga yetkazish orqali tarbiyasidagi qiyinchiliklarni yo'qotishga erishish mumkin. Shunday ekan, insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal qiluvchi ahmiyatga ega. Inson tabiatini o'zgartiradigan, uning shaxsini tarkib topishiga ta'sir qiladigan kuch – ijtimoiy omillar yoki boshqacharoq qilib aytganda, jamiyat ishlab chiqarish kuchlari, hamda ishlab chiqarish munosabatlarining o'sishi va o'zgarishidir. Bundan tashqari yana inson shaxsining tarkib topishiga ta'sir qiluvchi kuchli omil – inson orttirgan tajribalarning tarbiya vositasi orqali bolalarga berilishidir. Ma'lumki odamga hech vaqt uning psixik xususiyatlari, ya'ni uning aqliy tomonlari bilan bog'liq bo'lgan sifatlari nasliy yo'l bilan berilmaydi deb izoh beriladi. Lekin, shuni hech qachon esdan chiqarmaslik kerakki, real hayotda ko'pincha insonning xarakter xususiyatidagi salbiy og'ishlar uning nasliy tarkibi bilan bog'liq ekanligiga amin bo'lamiz.

- Boladagi salbiy illatlarni oldini olishda va bartaraf etishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:
 - Har bir yosh davrni o'ziga xos psixologik rivojlanish darajalarini aniqlab olish lozim;
 - Bolani tarbiyasidagi sodir bo'layotgan salbiy o'zgarishlarni o'rganib chiqish kerak;
 - "Tarbiyasi og'ir" bolalarning psixologik rivojlanishini me'yorashtirishga yo'naltirilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish lozim. Shunga amal qilgan holda:
 - Maktab hududida ko'cha-ko'yda, o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.
 - Bolaga bo'sh vaqtidan unimli foydalanish yo'llarini o'rgatib borish va uni nazorat
 - qilish;



- Ijtimoiy foydali mehnat turlaridan unimli foydalanish;
- Bolaning qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olgan holda to'g'araklarga qatnashtirish;
- Ijobiy qahramonlarning xatti-harakatlari, yutuqlari, shu yutuqlarga erishish uchun kurashlari kabilarga e'tibor qaratish;
- Barcha darslarda o'sh tarbiyasi og'ir bolani iloji boricha bir daqqa ham nazardan qoldirmaslik. Ota-onalarni psixologik bilimlardan xabardor bo'llishini ta'minlash;
- Maktabda o'tkaziladigan turli tadbirlar: har-xil kechalarda, o'z tengdoshlari davrasida, o'rtoqlari orasida unga so'z navbatini berish, ularda faol bo'llishini ta'minlash;
- Gazeta, radio, televideniya va jurnallardan to'g'ri foydalanishni o'rgatish;

Rag'batlantirish metodlarini ishlatib ko'rish. Lozim topilganda olgan baholarga yarim ball, bir ball qo'shish, yutuqlarinisinfda, maktabda me'yorida ta'kidlab qo'yish lozim. Agar bola tartibsiz, intizomsiz davraga o'ralashib kirib qolgan bo'lsa, uni tezlik bilan o'sha davradan ajratib olib, so'ng o'sha tarbiyasi og'ir bolani "yaxshi" va "a'lo" baholarga o'qiydigan intizomli o'quvchilarga biriktirib qo'yish kerak.

Mamlakatimizda mustaqillikka erishgandan buyon jamiyatimizda kelajagimiz buniyodkori bo'lган yoshlarga nisbatan bo'lган e'tibor ancha kuchayadi. Ayniqsa xalq ta'limi sohasida jiddiy o'zgarishlar bo'lmoqda. Bugungi kunda o'quvchilar tarbiyasidagi ijobjiy o'zgarishlarni har damda sezish mumkin. O'zbekistonni butun jahon tan olayotgan bir paytda yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash muhim omillardan biri bo'lib hisoblanmoqda. "Kelajakka qanday yoshlар kerak? Ularni qanday tarbiyalash lozim?" degan savollar hozirgi kunda har bir jonkuyar pedagogni tashvishga solib kelmoqda. Bola maktab ostonasiga qadam qo'ygunga qadar oiladagi olti, yetti yillik hayoti mobaynida oila birinchi darajali tarbiyachi ekanligini ham nazarda tutish lozim.



Bolalar narsa va hodisalarning mohiyatiga o'zlaricha baho beradilar. Ular ezgulik mezonini intilishlari mo'ljalini dastavval ota-onalari hayoti tarziga qarab belgilaydi. Yaxshi tarbiya berib yaxshi kishilarni kamol totirgan oilalardagi sofkillik, samimiylik, bir-biriga hurmat, bolalarda ham shu fazilatlarni kamol topishiga sabab bo'ladi. Ahil oilada bolaning xulq-atvori me'yordi to'g'risidagi tasavvuri ota-onalarning hulqi bilan uyg'un bo'lsa farzandlarini oqilona so'rab – tergab tursalar bu uydan tarbiyasiz bola chiqishi mumkin emas. Harqalay haqiqat, mehr-oqibat, adolat tushunchalari, ichi qoralik, loqaydlik, ma'naviy zaiflik, insoniy munosabatlardagi qashoqlik, ahloqiy noplilik hukm surgan oilalarda o'sgan bolalarning tarbiyasi ko'pincha izdan chiqadi. Bola yaxshilik va yomonlikka, haq va nohaqlikka nisbatan juda sezgir bo'ladi. Agar katta yoshdagi odam nohaqlikka xato deb tushinish mumkin bo'lsa, bola hayotning barcha murakkabliklarini hali tushinmaydi.

Afsuski, katta yoshdagilarning hammasi ham bolani ruhiy kechinmalari to'g'risidagi tasavvurlarga ega bo'lmaydi. Ruhiy holat insonning biron – bir tarzda ta'sir etuvchi xattiharakatlariga berilgan chuqur shaxsiy emotSIONAL bahodir.

Bolaga nohaqlik qattiq ta'sir qiladi. Bola qo'pol baqiriqda ham, mazax qilishda ham, yo'l-yo'lakay aytilgan tanbehdasi ham, kattalarning bolaga e'tiborsizligida ham nohaqlik ko'radi. Nohaqlik haqorat bo'lib tuyuladi, uning izzat nafsiq tegadi, g'azabini qo'zg'aydi, uning qalbida aktiv(nafrat) va passiv(g'iybat va ko'ra olmaslik) norozilikning turli tuman formalarini keltirib chiqaradi. Katta yoshdagi odamni yengilgina hayajonlantirgan narsa, bolada katta kulfatning manbai bo'lishi mumkin.

Ota-onaning yengil-yelpi mehnatni oqlab, oson pul toppish yo'llarini bolalar oldida maqtab gapirishlari, otaning o'z hamkorini mazax qilib, maqtanib aytgan gaplari bolaga axloqsizlik darajasini ochib beradi. "Tarbiyasi og'ir" va uzluksiz bo'lsagina ijobiy samara beradi. Odatda tartibsiz, intizomsiz, ishyoqmas, o'qishda qoloq va no'noq o'quvchilar "tarbiyasi og'ir" bola hisoblanadi. Tajribalardan ma'lumki, bolalar xarakter jihatdan xar hil bo'ladilar. Bunday bolalarning ayrimlari anomal xulq-atvorli, ba'zilari sotsial va bir qismi "tarbiyasi og'ir" bo'lishi mumkin. Axloq normalariga, jamiyat talablariga javob bermaydigan xulq-atvorli bolalar



asotsial xulq-atvorli bolalar deb ataladi. Anomal xulq atvor va harakat bola miyasining kasalligi bilan bog'liq bo'ladi. "Tarbiyasi og'ir" bolalar – bular tarbiyada e'tibordan chetda qolgan, o'z xoliga tashlab qo'yilgan bolalardir. Ular qayerdadir, qachonlardir, kimlarningdir tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar, tarbiyalashda ularga individual yondasha bilmaslik oqibatida paydo bo'ladi. "Tarbiyasi og'ir" bolalar murakkab tushuncha. Ularning har birida "tarbiyasi og'ir" boshqa bolalarga o'xshamagan, o'zigagina xos alohida individual xususiyatidir. O'z sababi, o'z xususiyati, o'zining normadan chetga chiqishi, o'zining tarbiya yo'li bo'ladi.

XULOSA

Boshqacha aytganda, normal ta'lim-tarbiya jarayonida chetda qolgan o'quvchilar, o'rtoqlari bilan normal munosabat o'rnata olmagan, qalb tug'yonlarini oshkor etishning tog'ri usullarini topa bilmagan bolalar "tarbiyasi og'ir" bolalar turiga kiradi. Bunday bolalarni o'z vaqtida payqab, ular bilan yaxshi ish olib borilmasa, ularga jamoatchilik ta'sirini o'tkazilmasa, noxush ko'ngilsiz voqealar sodir bo'lishi mumkin. Demak, "tarbiyasi og'ir" degan ibora o'ta salbiy ma'noni bildirmaydi. U yomon buzilgan, ishonchsiz bola emas. "Tarbiyasi og'ir" bolaga alohida munosabat, e'tibor va individual yondashuv zarur. Har qanday kasalni vaqtida davolagan maqul. E'tiborsiz qoldirilgan mayda-chuyda narsadan katta baxtsizlikka duchor bo'lish ehtimoli tug'iladi. Bolani "tarbiyasi og'ir" holatga olib boruvchi yagona sabab yo'q. Shuningdek ularni axloqsizlik illatlaridan sog'aytirib, mo'minqobil qilib qo'yadigan yagona shifobaxsh vosita ham yo'q. Lekin shunisi ham aniq-ki, jamoatchilik nazoratining bo'shlig'i tufayli og'irlashgan noqulay shart-sharoitlar, tarbiya ishlarida yuzakilikka yo'l qo'yish o'smir hayotida salbiy oqibatlarga olib keladi. Tarbiya inson uchun kurash demakdir. Bolaning qanday bo'lishi – bu shaxsiy ish bo'lmay, balki jamoatchilikni qiziqtirgan muammodir bolani tarbiyalaganda, u qilgan gunohining mohiyatini yaxshi anglamasligi oqibatida nima bilan tugashini hali tasavvur qila bilmasligini hisobga olish ham muhim. U chinakam mard yigit bilan do'st, chin o'rtoq qilishni orzu qiladi. Yanglishib yoki adashib yomonlar ta'siriga tushib qolganda esa unga darhol tog'ri yo'l ko'rsatilsa, har tomonlama maqsadga muvofiq bo'ladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Komilova N.G'. "Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi" o'quv qo'llanma. Toshkent-2007 105 b
2. Tadjiyeva S.N. Sabirova.A.D. "Oila va bolalar bilan ijtimoiy ish" Kurs o'tkazish uchun xrestomatiya. Toshkent-2009 320 b
3. G.S.Tursunbayeva, G.M.Duschanova, J.S.Sadinov "Botanika" Toshkent 2020.
- 4.Q. X. Xaydarov, Q. X. Xojimatov. O'zbekiston o'simlilari. Toshkent 1992.